



SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 21-avgust

124-7-99-F/25

Nurobod tuman hokimligi

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3953-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, tuman hokimligi uchun ajratilgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan ish, xizmatlar va tovarlar xarid qilish qilishda eng yaxshi takliflarni tanlab olish maqsadida:

1. Tuman hokimligida davlat xaridlarini tanlash bo‘yicha komissiya tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Doimiy tanlov komissiyasi zimmasiga ish, xizmatlar va tovarlar xarid qilishda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3953-sonli qarori talablaridan kelib chiqqan holda ish, xizmatlar va tovarlar yetkazib beruvchi tashkilot yoki korxonalarning eng yaxshi takliflarini elektron shaklda o‘rgangan holda haqqoniy qaror chiqarish yuklatilsin.

3. Nurobod tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.Nurullayev)ga hokimlik hisobxonasiga ish, xizmatlar va tovarlarni xarid qilishda e‘lon, auksion savdo va konkursdarning Respublika tovar-xomashyo birjasi elektron portaliga joylashtirish, shartnomalarni savdo natijalari ichki tanlov komissiyasi qaroriga asosan tuzish, g‘aznachilik tuman bo‘linmasiga belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim qilish hamda g‘aznachilikdan ro‘yxatidan o‘tgandan so‘ng to‘lovlarni amalga oshirish yuklatilsin.

4. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



M.Buranov

Nurobod tumani hokimining
2025-yil 21-avgustdagi
124-7-99-F/25-son farmoyishiga
1-ilova

**Tuman hokimligida davlat xaridlarini tanlash
bo'yicha DOIMIY KOMISSIYA TARKIBI**

Komissiya raisi	
R.Ibragimov	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari
Komissiya a'zolari	
M.Ibodullayev	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari
O.Yusupov	Tuman hokimligi yuristkonsulti
M.Nurullayev	Tuman hokimligi Bosh hisobchisi
A.Ziyatov	Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari
Komissiya kotibi	
M.Xakimov	Tuman hokimligi moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha bosh mutaxassisi